



## 2018 yil yanvar-noyabr oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **4160,8 mlrd.so'mni**, o'sish **7,8 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **111,4%**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **43,7 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **52,5 %**


2018 yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 4160,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,8 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 98,8 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashining 47,8 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashining 8,7 % ga, va qayta ishlash sanoati 5,3 % ga o'sishi hisoblandi.

### 2018 yil yanvar- noyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda



## 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o`shishiga qo`shgan hisssasi



**Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashi.**

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 47,8 % ga oshganligini kuzatish mumkin.








## Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

Qayta ishlash sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2593,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 62,3 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,3 % ga oshganligi kuzatildi.

### ***Yanvar- noyabr oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2017 yil	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yil	2017 yil yanvar-noyabriga nisbatan, %
	<b>O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna</b>		
8,7		7,9	90,0
	<b>Paxta tolasi, ming tonna</b>		
49,9		38,4	76,9
	<b>Aroq – mig litr 100 % spirt</b>		
1075,2		933,3	86,8
	<b>Elektr energiyasi, mlrd kvts</b>		
17,2		18,8	109,3
	<b>Paxta urug'l, ming tonna</b>		
79,6		60,5	76,0
2017 yil	Ishlab chiqaradigan	2018 yil	2017 yil yanvar-

	sanoat mahsulotlari		oktyabriga nisbatan, %
	<b>Kalava ip, tonna</b>		
4279,5		3832,3	89,5
	<b>Sellyuloza, ming kg 90%</b>		
1483,5		662,7	44,7
	<b>Un, ming tonna</b>		
32,3		32,5	100,8
	<b>Kunjara, ming tonna</b>		
40,0		36,2	90,5

## **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1413,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 34,0 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining o'sish sur'ati 8,7 % ga oshganligi kuzatildi.




Shuningdek 2017 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarishning yuqori o'sishi quyidagi faoliyat turlarida kuzatilmoqda: suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 98,8 % ga, rezina va plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarish 38,3 % ga, farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarish 29,1 % ga, kimyo mahsulotlari ishlab

chiqarish 29,0 % ga, teri charm mahsulotlari ishlab chiqarish 27,9% ga hamda ichimliklar ishlab chiqarish sanoati 25,9 % ga oshganligi kuzatildi.

### ***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1818,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 11,4 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 43,7 % ni tashkil etdi.

## 2018 yilning yanvar- noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 40,0 % dan 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida 41,1 % ga oshishi kuzatilmoqda.


## Yanvar- noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



## ***Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.***

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri 1349,8 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 32,4 % ulushini), Sirdaryo tumani 884,2 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 21,3 % ulushini), Guliston shahri 635,8 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 15,3 % ulushini), Boyovut 290,6 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 7,0 % ulushini) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### ***2018 yilning yanvar- noyabr oyida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi***




Shu bilan birga eng kam ulush Sardoba tumani 106,0 mlrd so'm (2,5 %) Xovos tumani 102,4 mlrd so'm (2,5 %), va Guliston tumani 88,8 mlrd so'm (2,1 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

## **2018 yilning yanvar- noyabr oylarida hududlarda axoli jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.**

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 5068,5 ming so'mni tashkil etib tuman va shaharlarning tabaqalanishi taxlil qilinganda, Shirin shahrida 72959,8 ming so'm, Guliston shahrida 7183,8 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

### **2018 yilning yanvar- noyabr oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,**




Tuman va shaharlar kesmida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'tan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti yuqoriligi quyidagi tumanlarda kuzatilgan, Mirzaobod tumanida 153,2%, Yangiyer shahrida 127,0 % hamda Guliston shahrida 118,3%. Shu bilan birga o'sish sura'ti kamayishi Guliston tumanida 84,6% va Boyovut tumanida 71,1% ni tashkil etgan.



### **Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

2018 yil yanvar-noyabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2182,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (jami sanoat mahsulotlarining 52,5 foizi) yoki 2017 yilning tegishli davriga nisbatan 110,1 foizni tashkil qilgan.

### **2018 yil yanvar-noyabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati**



**Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi**  
**Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: U.To'rayev

Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23